

Science Uzbekistan

INTERNATIONAL CONGRESS ON MODERN SCIENCES-IV

"Global Prospects for Multidisciplinary Research and Education"

CHIRCHIK STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

April 07-10, 2025 / Chirchik, Uzbekistan



CHDPU
CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



UPI

The
Education
University



Excellence in
Learning Innovation



PROCEEDINGS BOOK

Volume - 4

Editors

Prof. Dr. Jabbor Usarov

Prof. Dr. Dostnazar Khimmataliev

Mutabar Meylieva

Kibrio Burieva

ISBN: 979-8-89695-061-5



PROCEEDINGS BOOK
Volume-4
Science Uzbekistan
INTERNATIONAL
CONGRESS ON MODERN SCIENCES-IV
"GLOBAL PROSPECTS FOR MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND EDUCATION"
CHIRCHIK STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY
April 08-10, 2025 / Chirchik, Uzbekistan
Based on Order No. 490 of the Minister of Higher Education, Science and Innovation dated
December 27, 2024

Editors

Prof. Dr. Jabbor Usarov
Prof. Dr. Dostnazar Khimmataliev
Mutabar Meylieva
Kibrio Burieva

30.04.2025

by Liberty Academic Publishers, New York, USA
ALL RIGHTS RESERVED NO PART OF THIS BOOK MAY BE REPRODUCED IN ANY FORM, BY
PHOTOCOPYING OR BY ANY ELECTRONIC OR MECHANICAL MEANS, INCLUDING
INFORMATION STORAGE OR RETRIEVAL SYSTEMS, WITHOUT PERMISSION IN WRITING
FROM BOTH THE COPYRIGHT OWNER AND THE PUBLISHER OF THIS BOOK.

© Liberty Academic Publishers 2025

The digital PDF version of this title is available Open Access and distributed under the terms of the
Creative Commons Attribution-Non Commercial 4.0 license (<http://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/>) which permits adaptation, alteration, reproduction and distribution for
noncommercial use, without further permission provided the original work is attributed. The
derivative works do not need to be licensed on the same terms.
adopted by Mariam Rasulan

ISBN: 979-8-89695-061-5

Based on Order No. 490 of the Minister of Higher Education, Science and Innovation dated December 27, 2024

[illegible]

8. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. –T.: O'qituvchi, 66-bet
9. O'zbek pedagogikasi antologiyasi // Tuzuvchi-mualliflar: K.Hoshimov, S.Ochil. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 137-bet
10. Ozodqulov Olimjon Bahodir o'g'li. (2024). Rahbar va xodim munosabatlarining boshqaruv jarayonidagi psixologik xususiyatlari. Образование наука и инновационные идеи в мире, 41(1), 110–113. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/12079>

IJODIY JARAYON VA ONG OSTI: SAN'AT ORQALI INSONNING ICHKI DUNYOSINI ANGLASH

Umarova Shohida Absalomovna
CHDPU Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi
umarovashohida018@gmail.com
Egamberdiyeva Gulasal Xurshid qizi
CHDPU Psixologiya kafedrasi talabasi24/1
Gulasal.06@icloud.com
Boyto'rayeva Zulfiya Zoyirjon qizi
CHDPU Psixologiya kafedrasi talabasi24/1
zulfiyaboyturayeva@gmail.com
Gofforova Marg'iyona Sayfiddin qizi
CHDPU Psixologiya kafedrasi talabasi 24/1
margiyonagafforova363@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada ijodiy jarayon va ong osti o'ziga xos bog'liqlik tahlili. San'at inson ruhiy holati, ichki kechinmalari va ong osti jarayonlarini aksning samarali tarzda qaraladi. Tadqiqotlar ijodiy tafakkurning metodikasi va falsafiy rivojlanishi, inson ong osti orqali san'at asarlarida o'zini namoyon qilishi va estetikaviy natijalarga erishish, turli san'at yo'nalishlari orqali inson ichki dunyosini anglash jarayoni ko'rib chiqiladi. Maqola ijod ong osti munosabatini o'rganish ilmiy ahamiyatiga urg'u berilgan.

Kalit so'zlar: ijodiy jarayon, ong osti, san'at, estetik idrok, psixologiya, falsafa, tafakkur.

Аннотация: В статье анализируется творческий процесс и специфическая связь между подсознанием. Искусство рассматривается как эффективное отражение душевного состояния человека, его внутренних переживаний и подсознательных процессов. Методы исследования и философского развития творческого мышления, подсознательного самовыражения человека в произведениях искусства и достижения эстетических результатов. В статье подчеркивается научная значимость изучения подсознательного отношения к творчеству.

Ключевые слова: творческий процесс, подсознание, искусство, эстетическое восприятие, психология, философия, мышление.

Abstract: The article analyzes the creative process and the specific connection between the subconscious. Art is viewed as an effective reflection of the human state of mind, inner experiences and subconscious processes. Research methods and philosophical development of creative thinking, man's subconscious self-expression in works of art and achieving aesthetic results. The article emphasizes the scientific importance of studying the subconscious relationship to creativity.

Key words: creative process, subconscious, art, aesthetic perception, psychology, philosophy, thinking.

KIRISH

Inson ongning sirli psixozini tadqiq etish falsafa, logiya va san'atshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biridir. amaliy, ijodiy jarayon va ong osti munosabatlarini o'rganish moddiy san'atkorlar, balki keng tadqiqotlar uchun ham foydalanishdir. Ijod inson ruhiyatining eng chuqur qatlamlari bilan bog'liq bo'lib, san'at bu jarayonini qanday kuch sifatida namoyon bo'ladi. Bu shunday ekan, bu maqolada san'at orqali inson ichki dunyosini jarayoni ilmiy asosda tahlil tushuniladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ong egasi bo'lgan inson motivatsiyalangan harakatlarni bajarishga, ko'zlangan maqsadga erishishga yoki ma'lum vazifani bajarishga qodir, chunki inson o'zining hulq-atvori yoki holatini anglaydi va nazorat qiladi. Shunday bo'lsa ham, odam psixikasi uchun ob'ekt tomonidan anglanish darajasiga ko'ra farqlanadigan psixik jarayonlar va hodisalarning ikki katta guruhi xosdir. Inson ongida kechishi yoki ifodalanishi qisman aks etuvchi psixik jarayonlar va hodisalar. Bunday jarayonlar anglanmagan jarayonlar guruhiga taalluqlidir.

Barcha anglanmagan psixik jarayonlar uch bo'limga ajratiladi: ongli harakatlarning anglanmaydigan mexanizmlari, ongli harakatlarning anglanmagan qo'zg'atuvchilari va «ong usti» jarayonlari.

O'z navbatida, ongli harakatlarning anglanmaydigan mexanizmlari bo'limi uch sinfga bo'linadi: anglanmaydigan avtomatizmlar; anglanmaydigan mayl hodisalari; ongli harakatlarning anglanmaganligi.

Inson ongining rivojlanishida inson faoliyatining ijodiy xarakteri muhim ahamiyatga ega. Ong inson tomonidan tashqi olamnigina emas, balki, o'zi, hissiyotlari, obrazlari, tasavvur va sezgilari anglanishini taqazo etadi. Odamlar obrazlari, fikrlari, tasavvurlari va sezgilari ularning ijodiy mehnatlari mahsulida mujassamlantiriladi va bu jismlarning keyingi idrok qilinishida, aynan, o'zlarida yaratuvchilari psixologiyasini gavlantirgan holatda anglanadilar. Shuning uchun ijod inson o'zining shaxsiy ijod namunalarini idrok qilishi orqali o'zini anglash va ongini rivojlantirish yo'li va vositasi bo'lib hisoblanadi. Inson unga tabiatdan berilgan sezgi organlari yordamida olamni undan uzoqlashgan va undan mustaqil mavjud bo'lgan holda idrok qilishini anglaydi. Keyinchalik refleksiv qobiliyat, ya'ni, insonning o'zi uchun bilish ob'ektiga aylanishi va zarurligini anglash hissi paydo bo'ladi. ongning filo-va ontogeneza rivojlanish ketma-ketligi mana shunday iborat ong rivojlanishidagi ong rivojlanishidagi ushbu birinchi yo'nalishni refleksiv yo'nalish sifatida belgilash mumkin. ikkinchi yo'nalish tafakkur rivojlanishi va fikrning so'z bilan asta-sekin birlashishi bilan bog'liq. inson tafakkuri borgan sayin rivojlanib, narsalar mohiyatiga kirib boradi. bu bilan birgalikda orttiriladigan bilimlarni belgilash uchun qo'llaniladigan til ham rivojlanadi. til so'zi chuqur mohiyat bilan to'ldiriladi, va, nihoyat, fanlar rivojlana boshlaganida, tushunchalarga aylanadi. so'z-tushuncha ong birligi, hosil bo'ladigan oqim esa tushunchali yo'nalish bo'lib hisoblanadi.

Har bir yangi tarixiy davr uning zamondoshlari ongida o'ziga xos tarzda aks etadi, va odamlar mavjudligining tarixiy sharoitlari o'zgarishi bilan ularning ongi ham o'zgaradi. Uning rivojlanish filogeneza tarixiy rakursda tasavvur qilish mumkin. Lekin xuddi shuning o'zi inson ontogeneza rivojlanishi davomida inson ongiga nisbatan ham haqqoniydir, individ insonlar tomonidan yaratilgan san'at, madaniyat asarlari orqali ungacha yashab o'tgan xalqlarning psixologiyasiga kirib boradi. Ong rivojlanishidagi bu yo'nalish tarixiy yo'nalish sifatida belgilanadi.

Tarixning hozirgi davrida insonlar ongi rivojlanishda davom etmoqda, bu rivojlanish ilmiy, madaniy va texnikaviy taraqqiyotning yuqori tezlanishi yordamida jadallik bilan bormoqda.

Insoniyat ongi rivojlanishining keyingi asosiy yo'nalishi insonning o'zi va atrof-olamdagi anglanuvchilar sohasining kengayishi bo'lib hisoblanadi. Bu o'z navbatida madaniy-ahloqiy inqilobga o'sib boradigan dunyoviy ijtimoiy-iqtisodiy inqilob bilan, moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish vositalarini takomillashtirish bilan bog'liq.

Bunday o'tishning birlamchi belgilari hozirdanoq sezilmoqda. Bu – turli xalqlar va mamlakatlar iqtisodiy farovonligining o'sishi, ular mafkurasi va siyosatining halqaro va ichki maydonda o'zgarishi, davlatlararo harbiy qarama-qarshilikning pasayishi, odamlar muloqotida diniy, madaniy va ahloqiy qadriyatlar ahamiyatining oshishida ko'rinadi. Shu bilan birga insonning hayot, makro- va mikrodunyolar tilsimotlariga kirib borishi sodir bo'lmoqda. Fan yutuqlari natijasida insonni bilish va boshqarish, o'zi va dunyo ustidan hukmronligi sohasi kengaymoqda, insonning ijodiy imkoniyatlari, shuning, ongi ham oshmoqda.

TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqot doirasida quyidagi ilmiy metodlar qo'llanildi:

Psixoanalitik yondashuv – Freyd va Yung nazariyalari asosida ong osti jarayonlarining ijodiy faoliyatga ta'siri tahlil qilindi.

Fenomenologik usul – ijodkorlarning subyektiv tajribasi va san'atning inson ong ostiga ta'siri o'rganildi.

Neyropsixologik yondashuv – ijodiy tafakkurda miya faoliyatining roli va san'atning psixofiziologik mexanizmlari tahlil qilindi.

Semiotik tahlil – san'at asarlarida ong osti ramzlari va ularning badiiy ifodasi tadqiq etildi.

Ijodiy faoliyat inson ongi va ong osti o'rtasidagi o'zaro ta'sir mahsulidir. Freydeg ko'ra, ong ostida saqlanib qolgan hissiy tajribalar ijod orqali namoyon bo'lishi mumkin. Shuningdek, Karl Gustav Yung ijodiy jarayonda arxetiplar va kollektiv ong ostining muhim rol o'ynashini ta'kidlagan. Masalan, rassom Salvador Dali va adib Fyodor Dostoyevskiy ijodida ong osti ramzlari yaqqol aks etgan.

Ijod jarayonining uch asosiy bosqichi kuzatiladi:

Intuitiv g'oya paydo bo'lishi – ong ostidan kelib chiqqan tasavvur va hissiyotlar ijodiy jarayonda shakllanadi.

Ongli ishlov berish – ijodkor ongli ravishda o'z g'oyalarini tahlil qiladi va ularga shakl beradi.

Badiiy ifoda – yakuniy mahsulot san'at asari yoki ijodiy faoliyat natijasida namoyon bo'ladi.

San'at va ong osti ramzlari

San'atda ong osti obrazlari va ramzlari inson ruhiy holatini aks ettirishning muhim vositasidir. Surrealizm san'at yo'nalishida (masalan, Salvador Dali asarlarida) inson tushlari va ongsiz holatlaridagi tasvirlar mujassamlangan. Adabiyotda esa psixologik realizm uslubi (masalan, Dostoyevskiy asarlarida) ong osti jarayonlarini ifodalashga qaratilgan.

Bundan tashqari, musiqada ham ong osti jarayonlarini aks ettirish mumkin. Masalan, klassik va eksperimental musiqada improvisatsiya ong osti kechinmalarining bevosita ifodasi bo'lishi mumkin.

Ijod va nevrologik jarayonlar

MUHOKAMA

Zamonaviy neyropsixologik tadqiqotlar ijodiy tafakkur jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan miya faoliyatini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijodiy jarayon asosan chap va o'ng yarimsharlar hamkorligida amalga oshadi. O'ng yarimshar intuitiv va tasviriy fikrlash uchun javobgar bo'lsa, chap yarimshar tahliliy tafakkurga mas'uldir. MRI va EEG tadqiqotlari ijodiy faoliyat davomida limbik tizim va prefrontal korteksning faollashishini tasdiqlaydi.

Harakatlarni ongli nazoratdan ozod qilish haqida gapirilganda umumiy holatdagi ozodlik haqida o'ylash kerak emas, ya'ni, odam nima qilayotganini anglaydi, faoliyat ustidan nazorat saqlanib qoladi. Gap shundaki, ong maydoni (maydon – bu vaqtning ma'lum lahzasida anglanadigan ma'lumotlar sohasi) bir jinsli emas. Ong fokusi, ong osti, shuningdek, ortidan ongsizlik sohasi boshlanadigan chegarasini ham ajratish mumkin. Biror faoliyatni bajarishda uning eng murakkab bo'lgan va doimiy nazoratni talab etuvchi harakatlari ongimiz diqqat markazida bo'ladi. Ishlab chiqilgan yoki oddiy harakatlar ongimizning chetki sohalariga surib chiqariladi, o'zlashtirilgan yoki egallangan harakatlar esa ongimiz chegarasidan ongsizlik sohasiga o'tib ketadi. Shunday qilib, inson faoliyatining ong tomonidan nazorat qilinishi butunlay saqlanib qoladi.

Ong va faoliyatning ayrim tashkil etuvchilarining nisbati barqaror bo'lmaganligi sababli muntazam emas. Bu holat ongimizning diqqat markazida joylashgan harakatlar muntazam ravishda o'zgarib turgani uchun sodir bo'ladi. Inson tomonidan bajariladigan ba'zi harakatlar ko'nikmalar darajasiga ko'tarilganida ongning chetki, so'ngra esa ongsizlik sohalarigacha surib chiqariladi, lekin inson ko'plab xatoliklar sodir eta boshlasa, masalan, inson o'zini horg'in va behol his etganida, qaytadan o'zining oddiy harakatlarini nazorat qila boshlaydi. Shu kabi hodisani biror faoliyatni bajarishda uzoq davom etgan tanaffusdan so'ng kuzatish mumkin.

Avtomatizmlar muammosini ko'rib chiqishda quyidagicha savol tug'ilishi mumkin: tana harakati bilan bog'liq bo'lmagan inson faoliyati va psixik hayotning boshqa sohalarida ham avtomatizmlar mavjudmi? Ha, mavjud, va ularning ko'pchiligi bilan siz yaxshi tanishsiz. Masalan, istalgan matn ustidan ko'z yugirtirgan holda ayrim harflarning ma'nosini anglamasakda, matn mazmunini darhol idrok etamiz. Bu idrok avtomatizmlari. Avtomatik jarayonlar zehn sohasida ham mavjud, masalan, algebra, matematikaga doir misol va masalalarni echish.

XULOSA

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ijod inson ong ostining mahsuli bo'lib, san'at orqali ichki kechinmalarni anglash va ifodalash imkonini beradi. Psixoanalitik, fenomenologik va neyropsixologik tahlillar ijodiy tafakkur va ong osti jarayonlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni tasdiqlaydi. Ijodiy faoliyat jarayonida ong

ostidan yuzaga chiqadigan hissiy kechinmalar va xotiralar san'at orqali materializatsiya qilinadi. Kelgusidagi tadqiqotlarda eksperimental metodlardan foydalangan holda ijodiy jarayon va ong osti o'rtasidagi bog'liqlikni yanada chuqurroq o'rganish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bowlby, J. (1969). Attachment and Loss: Vol. 1. Attachment. New York: Basic Books.
2. Piaget, J. (1952). The Origins of Intelligence in Children. International Universities Press.
3. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
4. "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya" Z.T.Nishanova, N.G.Komilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova "O'zbekiston faylasuflari miliy jamiyati" nashriyoti. Toshkent-2018
5. "Rivojlanish psixologiyasi" fanidan ma'ruzalar matni Jo'rayev O'tkir Toshpo'latovich
6. "Umumiy psixologiya" G'oziyev. E "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" 2010
7. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. –T.: O'qituvchi, 66-bet
8. O'zbek pedagogikasi antologiyasi // Tuzuvchi-mualliflar: K.Hoshimov, S.Ochil. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 137-bet
9. Ozodqulov Olimjon Bahodir o'g'li. (2024). Rahbar va xodim munosabatlarining boshqaruv jarayonidagi psixologik xususiyatlari. Образование наука и инновационные идеи в мире, 41(1), 110–113. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/12079>

TASHQI MEHNAT MIGRANT OILALARIDA QADRIYATLAR O'ZGARISHINING IJTIMOIIY -PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Umarova Shohida Absalomovna

CHDPU Psixologiya kafedrası o'qituvchisi

umarovashohida018@gmail.com

Oydinova Muslima Alisher qizi

CHDPU Psixologiya kafedrası talabasi 24/1

muslimaoydinova@gmail.com

Pardayeva O'g'loy Baytiyorov qizi

CHDPU Psixologiya kafedrası talabasi 24/1

pardayevao500@gmail.com

Jalilova Sabrina Yashin qizi

CHDPU Psixologiya kafedrası talabasi 24/2

jalilovasabrina84@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot tashqi mehnat migratsiyasiga duchor bo'lgan oilalarda an'anaviy qadriyatlar tizimining o'zgarishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni tahlil qiladi. Migrant oilalar uchun kengaygan global migratsiya jarayonlari oila a'zolarining psixologik holati, ijtimoiy munosabatlari va madaniy identifikatsiyasida izchil o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, migratsiya oila ichidagi gender rollari, bolalar tarbiyasi, ma'naviyat va oilaviy birdamlik kabi qadriyatlarni deformatsiyalashuviga olib keladi. Bu jarayon migratsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy sabablari, jumladan, moddiy qiyinchiliklar, huquqiy himoyaning etishmasligi va ijtimoiy reintegratsiya muammolari bilan chambarchas bog'liq. Maqolada, shuningdek, O'zbekiston kontekstida migrant oilalarni qo'llab-quvvatlashning hukumat siyosati va ijtimoiy dasturlar samaradorligi baholanadi.

Kalit so'zlar: Tashqi mehnat migratsiyasi, oilaviy qadriyatlar, ijtimoiy-psixologik determinantlar, migratsiya oqibatlari, O'zbekiston, oila deformatsiyasi.

Аннотация: В исследовании анализируются социально-психологические факторы, влияющие на изменение традиционной системы ценностей в семьях, подверженных внешней трудовой миграции. Для семей мигрантов расширенные глобальные миграционные процессы приносят последовательные изменения в психологическом состоянии, социальных отношениях и